



ENSIKLOPEDIYAM

CHO'L PON NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2010



Aziz ota-onalar!

Har bir bolajon atrofdagi olamga qiziqib qaray boshlagan paytda uning hayotida ajoyib bir davr boshlanadi. Bolalar kattalarga nima uchun Oy yerga tushib ketmaydi? Sudralib yuruvchilar nima degani? Bolalar qanday paydo bo'lishadi, kabi ko'pdan-ko'p savollarni berib boshlarini qotirishadi. Mana shunday savollarga javob topish maqsadida qo'lingizdagi kitob tuzildi. Har narsaga qiziquvchan bolalar ushbu kitobni o'qib hatto ota-onalarining yordamisiz ham olamning paydo bo'lishi, hayvonot dunyosi, insoniyat, texnika va san'at haqida ko'pdan-ko'p kerakli ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin. Bulardan tashqari, bolalar ilk bor kerakli kitoblarni topib o'qish ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Shundan keyin ko'p kitoblar, jumladan, qiziqarli, foydali va jiddiy kitoblar olamiga sho'ng'ib ketishadi. Lekin baribir ushbu kitobdan o'qib olgan ilk bilimlari ularning esida umrbod saqlanib qoladi.

E 2004070000 - 23
360/04/-2009 -2010

ISBN 978-9943-05-266-6

© Rosman Publishing, 2004


© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.



Mundarija

Hammasi odam
haqida

4



Atrofimizdagi
texnika

22



Can'at olami

68





Ko'rsatkich

94

Hammasi ODAM haqida

Quloqlarimiz.....	6
Qon.....	8
Tinimsiz zahmatkash	10
Bolalar	12
Qizlar	14
Bizning qomatimiz	16
Uzoq yashash sirlari.....	18
Organizmning imkoniyatlari	20

Aziz bolalar! Siz tanangiz nimalardan tuzilganligini bilishga hozir ojizsiz. Mana bu bo'limda siz odam qanday nafas oladi, nima uchun og'riqni sezadi, odam tanasiga qon nega kerak, o'g'il bolalar bilan qizlarning farqi qanday kabi ko'plab savollaringizga javob topasiz. Shu bilan birga tanangizning ajoyib imkoniyatlari haqida ko'p narsalarni bilib olasiz.



hammasi odam
haqida



Quloqlarimiz


Quloqlarimiz qayerda joylashganini bilasizmi? Haqiqiy quloqlarimiz bosh suyagining ichida joylashgan. Tashqaridan ko'rinib turgan quloqni quloq suprasi deyiladi.

QULOQ SUPRASI.
Uning vazifasi tashqi tovushlarni ushlab qolib, eshitish teshigiga uzatishdan iborat.

TASHQI ESHITISH TESHIGI.
Tovush undan o'tib quloq pardasiga boradi.



Keragidan ortiq qattiq shovqin quloq pardasini tebratib yuboradi. Bunday hoi takrorlanaversa qulog'ingiz kar bo'lib qolishi mumkin. Tez-tez musiqa eshitib tursangiz, buni yodingizda tuting.



O'RTA QULOQ –
eshitish kanali
va quloq
pardasidan
iborat.

CHIG'ANOQ

yo'g'onlashib boradigan spiralni eslatadi. Bu murakkab a'zo tovushni qabul qilib oladi.

QULOQ PARDASI – bu tashqi quloqni o'rta quloqdan ajratib turadigan to'siq. U tovushdan tebranib, quloqning yupqa suyakchalari – «bolg'acha» va «bosqon»larini harakatga keltiradi.



YEVSTAXIYEV KANALI tomoq bilan o'rta quloqni bog'laydi. Bu kanal orqali quloq bo'shlig'iga eshitishni ta'minlaydigan havo kiradi.

Hindistonda quloq solinchog'i qancha uzun bo'lsa, u odamni shuncha aqlli hisoblashadi. Shuning uchun Hindiston bosh xudosining qulog'ini doim katta qilib tasvirlashadi.



ICHKI QULOQ

«Chig'anoq» – asosiy qism bo'lib, quloqning tovush qabul qiladigan markazi. Bu qopcha maxsus suyuqlik bilan to'la bo'ladi. Suyak «bolg'acha» unga uriladi. Keyin biz eshitgan tovush miyaga yuboriladi.






Qon

Butun tanamizda – boshimizdan oyog‘imizgacha tomirlar bo‘ylab qon oqadi. Qon tomirlar jigar, oshqozon, o‘pkalarimizni aylanib o‘tadi.

Bolalar, sizning tanangizda uch litrcha, kattalarnikida besh litr qon bo‘ladi.




Mikroskopda ko‘rinadigan bir tomchi qon.

Oziqlanadi va himoya qiladi

Qon tanada juda muhim vazifani ado etadi. U hujayralarga kislorod va boshqa moddalarni tashiydi, shu bilan birga hujayralardan keraksiz narsalarni chiqarib tashlaydi. Qon sharofati bilan hujayralar nafas oladi, oziqlanadi. Tag‘in qon ularga zararli mikroblar kirib qolishidan asraydi. Butun tanamizni qon 23 soniyada aylanib chiqadi.



Oq qon tanachalari mikroblar bilan kurashadi.



Vena – ko'k tomirdagi qonning harakati.

Arteriyadagi qonning harakati.

Qonning harakati

Agar tanamizdagi tomirlarda yurayotgan qon to'xtasa, biz o'lamiz. Shuning uchun qon harakati hech qachon to'xtamaydi. Kislorod bilan to'yingan qon arteriyalarimiz bo'ylab tinimsiz harakatda bo'ladi. Arteriyalar vena tomirlariga nisbatan ingichka, shuning uchun unda tez oqadi. Axir, u qonni hujayralarga tezroq yetkazishi kerak-da. Qon vena tomiri orqali karbonat angidrid gazi bilan yurakka asta boradi, chunki u arteriyaga qaraganda keng-da.

Puls

Puls nimaligini bilasizmi? Bu yurak qonni nasosday katta kuch bilan itarganda qonning tomir devorlariga uringan zarbasidir. Yurak qancha tez qisqarsa puls shuncha tez uradi. Bilagingizdagi qon tomirlaringizni topib ushlab ko'ring, pulsingiz bir daqiqada qancha urishini sanang.

Qon arteriya va vena tomirlarida yurganda, uning devorlarini siqadi. Buni qon bosimi deydi. Qon bosimini o'lchash uchun maxsus asbob bor. Odamning kayfiyati qon bosimiga bog'liq.



Pulsni sanash.

Qon bosimini o'lchash.



naqida




Tinimsiz zahmatkash

Yurak – tanamizdagi eng zarur a'zolarimizdan biridir.

Yuragimiz hech qachon to'xtab qolmasligi kerak. Axir hamma a'zolarimizga qonni faqat yurak yetkazib beradi-ku. Agar yurak bir daqiqa bo'lsayam to'xtasa, boshqa hamma a'zolarimiz o'ladi.

Yuragimiz tinimsiz ishlab turadi. Bu quyidagicha ro'y beradi. Yurak ochilganda (1.2- rasm) qon bilan to'ladi, siqilganda (3.4- rasm) tomirlarga qon yuboriladi. Bu hoi shunday takrorlanaveradi. Qonni olib yana chiqarib yuborish uchun yurakda to'rtta klapan – bo'lma bo'ladi.




ARTERIYALAR – kislarodga to'yingan, zarur oziqqa boy qizil qondir. Eng katta arteriyani aorta deyishadi. U to'g'ridan-to'g'ri yurakka ulangandir.

VENALAR – hujayralardan karbonat angidrid gazi va zararii moddalarni olib qaytayotgan qoramtir qondir.




YURAK –
ikki qismdan iborat.
Birinчисidan
arteriya
qoni o'tsa,
ikkinчисidan
venadagi qon o'tadi.
Bu ikkita qon oqimi
hech qachon
bir-biri bilan
to'qnashmaydi.



YURAK VA ARTERIYA
Eng katta qon tomirlardan
biri yurakdan o'pkaga
o'tadi. Ulardan qon kislorod
olib, yana yurakka qaytadi.

Yer yuzidagi bironta olim ham
yurakka o'xshash tinimsiz
harakat qilib turadigan
dvigatel kashf eta olmagan.





Bolalar

Tabiat odamni ikkiga – erkaklar va ayollar, bolalar va qizlarga ajratgan.

Bu har ikki guruh vakillari jins deb ataladi. Erkak va ayollarda tana tuzilishi, kiyinishlari, qiziqishlari har xil. Bu jins belgilaridir.

Nima uchun erkaklar va ayollar, bolalar va qizlar har xil qilib yaratilgan? Avval bolalar haqida gaplashaylik.



Tinib-tinchimaslar va urishqoqlar

O‘g‘il bolalar tabiatan tez harakat qiladigan o‘yinlarni, o‘rtoqlari bilan kuch sinashishni yoqtirishadi, ba‘zan ular mushtlashib ham ketishadi. Tizzalar shilinishi, bilaklar timdalanishi, burun qonashi – bular o‘g‘il bolalar tabiatiga xos bo‘lgan to‘polonchilik oqibati.

Erkak kuchli va himoyachi

Qadim zamonlardan buyon erkaklar oilaning g'amini yeb kelgan. Ular oziq-ovqat topishgan, uy qurishgan, ayollar va bolalarni dushmandan muhofaza qilishgan. Bir so'zli, o'zidan ojizlarni xafa qilmaydigan, jasur erkaklarni bugungi kunda «haqiqiy erkak», deyishadi.

Tabiat erkaklarni jasur, chidamli va qat'iyatli qilib yaratgan.

O'smirlar

Vaqt o'tishi bilan tinib-tinchimas bolalar ulg'ayib yigit bo'ladi. Endi ularning tashqi qiyofasi ham o'zgaradi. Yelkaları kengayadi, beli esa ingichka tortadi. Yuzida soqol-mo'ylov o'sib chiqadi. Bolalarning tanasidagi bu o'zgarishlarni olimlar jinsning ikkinchi o'zgarish belgisi deb atashadi.



haqida



Qizlar

Ayollar va qizlar insoniyatning yarmini tashkil qiladi. Ayol jinsini go'zallik ramzi deb atashadi. Bu tasodifiy emas.

Axir tabiat insoniyat jamoasida ona bo'yniga xotin va ona bo'lishdek muhim hamda ulkan vazifani yuklagan. Hozircha bo'lajak onalar sochlari uzun va lenta taqqan qizchalardir.

Mahmadona qaqildoqlar

Ko'pchilik qizchalar qo'g'irchoq o'ynashadi, qo'g'irchoqlariga lenta taqishadi. Ularni kolyaskada ovqatlantirishadi. Qizchalar qo'g'irchoqlarga xuddi yosh onalardek qarashadi. Ular ko'p gapirishni, ko'zgu oldida ko'proq turishni yoqtirishadi.

Qizchalar ona-bola o'ynashni sevishadi. Qo'g'irchoqlariga g'amxo'riik qilishadi.



Ayol – uy bekasi

Ibtidoiy davrdan boshlab ayollar uy bekasi bo'lib kelishgan. Ular ovqat pishirishadi, bolalarni tarbiyalashadi. Uy yumushlari bilan band bo'lishadi. Hozirgi ayollar hayotga faol aralashadi. Erkaklar bilan barobar ishlashadi, sport bilan shug'ullanishadi, ilmiy kashfiyotlar yaratishadi, hatto fazoga ham uchishadi.

Qizlar

O radan bir necha yil o'tgandan keyin qizchalar ulg'ayadi, ularning tanasida o'zgarish bo'ladi, ko'kraklari chiqib, sut bezlari shakllanadi. Yangi tug'ilgan go'dakni emizish uchun ko'kragiga sut keladi. Ularning qomatlari ham o'zgaradi, bo'ksasi kengayib, beli, yelkalari kichrayadi.



Ayollarning kuchi erkaklarnikiga qaraganda kamroq, lekin ular ko'rkam va nafis bo'lishadi.

haqida



Bizning qomatimiz

Bolalar! Yoningizdan o'tib ketayotgan odamlarga hech razm solganmisiz? Bir xillari tik qomatli, qadamlari dadil. Boshqalari bukilib olgan, arang qadam tashlab yurishadi.

Buning sababi nimada?

Qaddi-qomati tik odamlar doim chiroyli va qat'iyatli bo'lib ko'rinadi. Uning tanasi ham sog' va kuchga to'la bo'ladi.

Tik qomat

Odamning yurishi va tashqi ko'rinishi uning qomatiga bog'liq. Qomat yurganda, kompyuterda o'tirganda, sport o'yinlarida gavnani to'g'ri tutishdir. Qomat tik tutilganda ko'krak sal oldiga chiqib yelka kengayadi, qorin ichga tortiladi, oyoqlar esa to'g'ri qadam tashlaydi.



**Qariyalar
bukilganча
oyoqlarini sudrab
bosishadi.
Buning uchun ularni
ayblab bo'lmaydi.**



Qaddingizni tik tuting

Agar doim qaddingizni bukib, boshingizni egib yuraversangiz tez orada kichkina cholga o'xshab qolasiz. Bunaqa bo'lishni istamasangiz kerak. Belingizni, boshingizni qanday tutib yurishingizga e'tibor qiling. Yurganingizda boshingizni ko'tarib yuring, bir joyda turganingizda devorga suyanmang. Ko'z oldingizga keltiring: sizning umurtqangiz to'ppa-to'g'ri, qaddi tik odam xushbichim bo'ladi. Gap tashqi ko'rinishda emas. Bunaqa odamning umurtqasi sog' bo'ladi, bu esa tana uchun juda zarur.

**Noto'g'ri o'tirish
umurtqaning qiyshayib
qolishiga olib keladi.
Bu esa sog'liq uchun
juda zarur.**

Qanday o'tiramiz?

Bu savolga javob berish uchun o'z o'tirishingizga nazar tashlang. Stulda o'tirganda bukilib olish yoki oyoqni yig'ib o'tirish umurtqangizga, umuman, tanangizga juda katta ziyon. Bukilib o'tirish yurak bilan o'pkaning ishlashiga zarar keltiradi. Stolda o'tirganda belingizni tik tuting. Stol bilan ko'kragingiz orasidagi masofa 4 santimetrdan kam bo'lmasin, boshingizni pastga egib olmang.







Uzoq yashash sirlari

Odamlar umrni uzoq qiluvchi sehrli modda – eliksir tayyorlayman deb qanchadan-qancha kuch va vaqt sarflashmadi deysiz.

Buning uchun qadimgi sehrgarlar har xil o‘tlarni qorishtirdilar, sichqon dumi va mushuk tishlarini tuyib yanchdilar, aytish qiyin bo‘lgan duolarni to‘qib chiqardilar. Ular odamning uzoq umr ko‘rish siri uning o‘zida, o‘z ichida yashiringanini bilishmadi.

Havosi musaffo
bo‘lgan tog‘larda
uzoq umr ko‘rgan
odamlarni tez-tez
uchratish mumkin.



Sog' o'pka bilan
chekuvchilarning o'pkasini
solishtirib ko'ring.
Zararli odatlar bizning
sog'lig'imizga zavor bo'ladi.

Tabiat ehsoni

Olimlar tanamiz tinimsiz 150 yil yashashi mumkinligini isbotlashgan. Tabiat odam zotini shunday yaratgan. Afsuski, odamzot tabiatning bu ehsonidan kam foydalanadi. Zararli odatlarimiz bizni vaqtdan ilgari qaritib qo'yadi.

Harakat – hayot

Uzoq yashash uchun toblanish, to'g'ri ovqatlanish, asosiysi, toza havoda ko'proq yurish kerak. Hozirgi odamlar ishda ham, uyda ham ko'p harakat qilishmaydi. Shu sababli tanamizning ishlash qobiliyati pasayadi, ayniqsa, yurakka qiyin bo'ladi.

Sog'lom bo'lish uchun toza havoda ko'proq harakat qilish kerak.



Agar uzoq yashashni xohlasangiz sog'lig'ingizni qariguncha asrash kerak. Buning uchun yoshlikdan har bir kunni tartibga solib olish kerak. Sizning uyqungiz sakkiz soatdan kam bo'lmasligi lozim. Bu vaqtda tanangiz ertangi kun uchun yetarli kuch va quvvatni yig'ib oladi.





Organizmning imkoniyatlari

Bu dunyoda ko'p narsa insonning qo'l ostida. Texnika taraqqiyoti bilan fazo zabt qilindi, okeanlarning tubiga tushildi, g'orlarga kirildi, tog' cho'qqilariga chiqildi. Atrofimizdagi olamni o'rganish yaxshi, lekin shu bilan birga vujudimizda yashiringan sirlarni, ya'ni inson organizmi imkoniyatlarini o'rganish ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi.

Changalzorlarda

Maugli haqidagi ertakni bilasizmi? Bolakay bo'rilar ichida o'sadi, ov qilishni, dushmandan saqlanishni o'rganadi, bo'ri galalariga yordam beradi. Changalzorda tarbiya topgan Maugli odamlar ichida yasholmaydi. U uxlash uchun yumshoq karavot zarurligini, oyoq kiyimi kiyish kerakligini tushunmaydi yoki yomg'ir yoqqanda zontikni ochish kerakligini bilmaydi, axir hayvonlar bunday qilishmaydilar-da. Demak, insonning jismi changalzorlarda yashashga ham moslashishi mumkin ekan.

**Maugli
bo'rilar
orasida.**



**Shaharda yashashning
o'ziga xos xususiyati bor.**

Shaharda

Sahar hayoti changalzordagi hayotga o'xshamaydi. Mashinalar ko'p, eskalatorlar va metro har qadamda odamlar hayotini yengillashtiradi. Lekin bunday hayot tarzi inson organizmi uchun juda ko'p xavf-xatarni keltirib chiqaradi. Jismoniy mehnatsiz inson kayfiyati yomonlashadi. Shuning uchun hamma shaharliklar sport bilan shug'ullanishlari kerak.

Bu ertakka o'xshaydi

Siz ko'mir cho'g'lari ustida yurgan yoki bir necha kun nafas olmay yashagan odamlar haqida eshitganmisiz? Bu ertakka o'xshaydi, lekin bu bor gap. Masalan, amerikalik karate ustasi D. Dilman bir urib 135 kilogrammlik muzni parchalab yuboradi. Kardiff shahrida yashovchi B. Uilyams elektr toki bilan shu qadar ko'p zaryadlanganki, hatto qo'lidagi lampochka kuyib ketgan. Bular hammasi hali tanamizning, organizmimizning imkoniyatlari yetarli o'rganib chiqilmaganini ko'rsatadi.

Kashf etishga molik narsalardan biri bu organizmimizning kam o'rganilgan ichki sirlaridir.





Tabiat bizga tuhfa etgan kuch-quvvatning chegarasi yo'q. Bu inson imkoniyatlarining yashirin manbaidir.



Atrofimizdagi texnika



Texnika nima?	24
Muhandis nima degani?	26
G'ildirak qanday aylanadi	28
Velosiped	30
Avtomobil	32
Avtozavod	34
Temir yo'l	36
Qaysi so'zlar «bus» bilan tugaydi?	38
Metro	40
Yelkanli kema	42
Zamonaviy kemalar	44
Samolyot	46
Raketa	48
Elektr	50
Yorug'lik	52
Yudagi texnika	54
Radio	56
Telefon	58
Kino	60
Televizor	62
Ovozli apparatlar	64
Kompyuter	66



Bir atrofingizga qarang. Hamma tomonlama turli texnika asbob-uskunalari, priborlar, apparatlar va mashinalar bilan o'rab olinganingizni ko'rasiz.

Bularni bilib olish uchun siz ulug' kashfiyotlar bilan tanishib chiqishingiz zarur bo'ladi. Bolalar, siz bu bo'limni o'qib har xil mashinalar nima uchun yaratilganini, ular qanday tuzilgan-u, bulardan qanday qilib to'g'ri foydalanish kerakligini bilib olasiz. Qaysi kasbni tanlamang, hayotingizda texnikasiz hech nimaga erisholmaysiz.





Texnika nima?

Qadimgi greklar ikki yarim ming yil muqaddam yashashgan.


Ulardan bizgacha ko'p fanlar, kashfiyotlar va texnika qurilmalari yetib kelgan.


Ulardan, shuningdek, arifmetika, grammatika kabi ko'p so'zlar ham yetib kelgan.

Mohirlik

Texnika so'zi qadimgi greklarda «texne» – «mohirlik», «uquv» ma'nolarini bildirgan. Hozir biz texnika deganda ko'pincha har xil mashinalar, qurol-aslahalarni tushunamiz. Hozirgi zamonda ular juda ko'p, qadimgi greklarda esa, bu deyarli bo'lmagan. Hali kashf etishga ulgurishmagan.

Qadimgi greklar oddiy moslamalar bilan juda ulkan ibodatxonalar qurishgan.





Greklar kuylovchi o'yinchoqlar yasashgan. Oddiy g'altak, havo va suv butun moslamani harakatga keltirgan. O'qlar aylangan da ularga qo'ndirilgan qushlardan biri sayray boshlagan.

Abak – qadimgi greklar ishlatgan cho't taxtasi.



Arximed suvni yuqoriga chiqarish uchun murvat yaratgan.



Bug' kuchi bilan qadimgi odamlar mexanizmlarni ishlatishgan.





2200 yil ilgari greklar suv tegirmoni bunyod etishgan. Bungacha odamlar g'allani tosh bilan yanchib un qilishgan.




Muhandis nima degani?

«Injener» soʻzi «kashfiyot» degan maʼnoni anglatadi. Bizda uni «muhandis» deyishadi. Demak, muhandis koʻp narsalarni kashf qiluvchi, yaratuvchi degani ekan.

Deltaplan bizga uchayotgan qushni eslatadi.



Qutqarish chamberagi.




Uygʻonish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi ham muhandis boʻlgan. U avlodlarga texnikaning koʻp schalari boʻyicha har xil loyihalar qoldirgan.

Hozirgi kashfiyotlar va yangiliklarning tug'ilishi insoniyatning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Leonardo da Vinchi 550 yil muqaddam tug'ilgan. Uning yondaftlarida uchuvchi apparat, parashyutlar, qanot, vertolyotlarning qoralama chizmalari topilgan. U hatto odamning Oyga uchishi haqida ham o'ylagan.

Parashyut.
U hozir ham buyuk olimning rasmda ko'rsatganidek yasaladi.

Leonardo da Vinchining uchish apparati hozirgi samolyotga o'xshash.





G'ildirak qanday aylanadi?

Tosh va yog'ochlar ibtidoiy odamlar oyog'i ostida yotgan. Tayyor g'ildirak esa tabiatda bo'lmagan. G'ildirak kashf qilinganch uni uzoq davrlar mobaynida mukammallashtirishgan.



Butun g'ildirak.



Qismlardan tuzilgan g'ildirak.



Kegayli g'ildirak.

Zarur kashfiyot

G'ildirakni bir necha ming yil ilgari qadimgi Sharqda ixtiro qilishgan, deb hisoblashadi. Dastlabki g'ildiraklar yaxlit bo'lgan. Uni yo'g'on to'sindan arralab tayyorlashgan. Keyin kimdir taxtalarni biriktirib yasashni o'ylab topgan. Bu g'ildiraklar og'ir va mo'rt bo'lib, tezda sinib ketavergan. Gardishiga kegay – spitsa qo'yilgan g'ildirak yasashguncha ko'p asrlar o'tgan.

Qadimgi aravalar ikki yoki to'rt g'ildirakli bo'lgan.



Moskvagagi tomosha
g'ildiragi.

G'ildirak – bu harakat


G'ildirak harakat qildiradi. Busiz ko'p mexanizmlar ishlamaydi. Stanoklarda, motorlarda, soat-u ko'tarma kranlarda g'ildirak bo'ladi. Odamlar hatto ko'ngilxushlik uchun ham g'ildirakdan foydalanishni o'ylab topishdi.



Londondagi tomosha
g'ildirak – «shayton
g'ildirak» dunyodagi eng
katta g'ildirak.



G'ildirakning
diski juda mustahkam
metaldan yasaladi.



Rezinali shinaga havo to'ldirilgan. U yo'lovchilarni notekis yo'lda, zarbadan, chayqalishdan saqlaydi.



Velosiped

Odamlar velosipedni ilgari zamonda kashf qilishgan. U lotincha ikki soʻzdan iborat. «Veloks» – «tez», «pes» – «oyoq» degan maʼnoda. Demak, velosiped odamlarning tez yurishi uchun kerak boʻlgan ekan.




Mana bu ixtirochi rul oʻmida dastak oʻmatgan. Rul oʻylab topmagan, shuning uchun ulkan gʻildiraklarni qoʻli bilan itarib boshqarib, toʻgʻri ketavergan.

Yogʻoch
«uchqur».



Yogʻoch oʻyinchoq

Velosipedning hozirgilariga oʻxshagan xili 1791- yilda Fransiyada paydo boʻlgan. Bu aslida yogʻochdan yasalgan pedalsiz, rulsiz oʻyinchoqqa oʻxshagan edi. Uni mingan odam oyogʻi bilan itarardi: bunda uning oʻzi chopganiniyam, velosipedni haydaganiniyam bilib boʻlmasdi.




Ikkita pedal

Velosipedlar har xil – yosh bolalar uchun uch g'ildirakli, o'smirlar va kattalar uchun ikki g'ildirakli bo'ladi. Ularning hammasida ham ikkita pedal bor.

Sport velosipedlari katta yo'llarda musobaqa uchun mo'ljallanadi.

O'rgimchak velosiped katta va mitti g'ildirakdan iborat bo'ladi.



Yo'l belgilari ularning yo'llarda qayerdan yurishlari mumkinligini ko'rsatib turadi.



Avtomobil


Avtomobil paydo bo'lganiga yuz yildan sal oshdi. «Avtomobil» ikki so'zdan iborat. Grekcha «avto» – «o'zi», lotincha «mobil» – «yuradigan» ma'nolarini anglatadi.

Bu ikki so'zni qo'shganda «o'zi yuradigan» so'zi kelib chiqadi. Eng birinchi avtomobilni 1770- yilda fransuz Nikola Kyunyu degan odam yasagan. Lekin aslida bu undan bir asr keyin Karl Bens yaratgan avtomobilning tarxi, timsoli edi, xolos. Bungacha odamlar yuklarini asosan otlarda tashishgan.



1885-yilda nemis ixtirochisi Karl Bens motori benzin bilan ishlaydigan birinchi avtomobilni ixtiro qiladi. Bu mashina odamdan salgina tez yurardi. Odamlar uning ustidan kulib «o'zi chopadigan arava» deb mazax qilishgan.

MOTOR –
mashinaning yuragi.






Ko'pchilik avtomobillarda haydovchiga salonga o'rnatilgan kompyuteri yordam beradi.


YUKXONA mashinaning orqasida bo'ladi. Unda zaxira g'ildirak va zaruriyat tug'ilganda ta'mirlash uchun asbob-uskunalar saqlanadi.

O'RINDIQLAR. Ularda yo'lovchilar o'tiradi.



DVIGATEL – avtomobilning eng asosiy qismi. U mashinani yurg'izadi.

SHASSI – mashinaning asosi.



Avtozavod



Birinchi avtomobillarni xuddi uyni qurgandek yasashgan – uning qismlarini bir joyda terishgan. Amerikalik Genri Ford mashinani harakat qiluvchi tasma bilan konveyer usulda yasagan. Bu yangilik mashina ishlab chiqarishni bir necha bor ko‘paytirgan. Hozir dunyo bo‘yicha bir yilda 40 million mashina ishlab chiqariladi.

Kelajakda yasaladigan avtomobillar konveyer usulda sexdan naq «suzib» chiqishadi.

G‘ildirakdagi uy

Bir turdagi avtomobillarning qismlari – kuzovi, g‘ildiragi, hatto eng mayda murvatlarigacha – bir xil qilib yasaladi. Uning biron qismi shikastlansa yangisiga almashtiriladi. Shuning uchun zavodlarda mashinaning o‘zidan ko‘ra har xil qismlari ko‘proq yasaladi.

Mashina – bu g‘ildiraklar ustidagi uy, hamma narsa qo‘l ostingda bo‘lishi kerak.

Bitta avtomobilda ikki mingdan oshiq har xii qismlar bo‘ladi.





«Pejo»
(Fransiya).



«Mercedes»
(Germaniya).



«Leksus»
(Yaponiya).



GAZ
(Rossiya).

Yordamchi robotlar

Hamma mashina zavodlarga avtomat stanoklar o'rnatilgan. Ularni atigi bir nechta odam boshqaradi. Qismlar konveyer usulda teriladi. Kuzov payvand qilinib bo'yaladi. Motor to'la-to'kis avtomatlashtirilgan sexda teriladi. Mashina zavodlari sexlarida ko'p ishlarni robotlar bajaradi. Xotiralariga detallarni yig'ish dasturi kirgizilgan robotlar – kompyuterlarning buyrug'i bilan harakat qilishadi.



«Mercedes bens»ning firma belgisi uch qirrali yulduz.
Bu – firmaning havoda ham, quruqlikda ham, suvda ham muvaffaqiyat qozonishi ramzidir. Firma dastlab samolyotlar, mashinalar va kemalarning motorini ishlab chiqargan.






Temir yo'l

Bundan ikki yuz yillar muqaddam Angliyada temir yo'l ixtiro qilishdi. Yo'lga ko'ndalang qilib yog'och to'siqlar qo'yishdi. Unga g'ildirak yurishi uchun po'lat izlarni mahkamlashdi.

Buni ingliz tilida «reylz», rus tilida esa «reklar» deyishadi. Mana shu temir yo'llar ustida yuklarni, odamlarni tashish oson bo'ldi.


Parovozlar


Yuklar bug'li mashinalar bilan avvaliga oddiy yo'llarda tashilgan. Keyin po'lat g'ildiraklar, so'ngra relslar paydo bo'ldi. Parovozlarni relslarga qo'yildi. Ishchilar parovozning o'txonasiga tinimsiz ko'mir tashlab turar va u ilgari lab borardi.



Eski parovoz.

Amerika lokomotivi.







Poyezd soatiga
200 kilometr yuradi.

Bugungi poyezdlar samolyotdan kam yurishmayapti

Endi parovozlar eskirib qoldi.
Hozirgi kunda temir yo'llarda
ularning o'rnida elektrovozar,
teplovozar yurmoqda. Elektrovozning
dvigateli elektrli. Teplovoz dizel
yordamida harakatga keladi. Endi
maxsus relsli yo'llar qurilmoqda.
Poyezd bu yo'llarda magnit yordamida
harakatga keladi. Endi poyezdlar taqa-
tuqsiz, siltanishlarsiz yuradi.

**Magnit yostiqcha
qo'yilgan poyezd.**


Poyezd harakatga kelsa yoki
to'xtasa, magnit qutblari
harakatga keladi.





Qaysi soʻzlar «bus» bilan tugaydi?

1662- yilda Fransiyaning poytaxti Parij koʻchalarida ot qoʻshilgan katta kareta yura boshladi. U kira qilib odamlarni tashiy boshlaydi. Bu yangilikni Blez Paskal degan olim yaratadi. Uni lotin tilida «Omnibus», yaʼni «hamma uchun» degan soʻz bilan atashadi. Shoshqaloq shaharliklar uni qisqa qilib «bus» deb atay boshlashgan.



150 yil ilgari omnibus relsga qoʻyildi. Shunday qilib, ot-temir-yoʻl yoʻli, qisqacha «konka» paydo boʻldi.

Trolleybus

Muhandislar avtobusga tramvaynikiga oʻxshagan elektr motori oʻrnatishdi. Shunday qilib, relssiz tramvaylarning gʻildiragida yuradigan trolleybusga oʻxshagan va avtobuslarning gʻildiragida yuradigan trolleybus paydo boʻldi. Unga tok trolleybusning yuqorisidan oʻtkazilgan simlar orqali beriladi.



**Trolleybusning birinchi so'zi
«trolley»dir.**

**Bu so'z inglizchada
«simlar ulanishi» degan
ma'noni bildiradi.**

**Bu simlar orqali
tok kelib,
trolleybusning
motorini
yurgizadi.**



**Mikroavtobuslar odamlarni,
yuklarni tashiydi.
«Mikro» – «kichik» degani.**




Avtobus

Avtobus jamoat transporti, u odamlarni shahardagina emas, qishloq joylarida ham tashiydi. Ayrim avtobuslar uzoq masofalarga yuradi. Boshqa har qanday avtomobilga kerak bo'lganidek, unga ham benzin va moy kerak bo'ladi. Uning yonishidan paydo bo'lgan gaz dvigatelni ishga tushiradi.

**Zamonaviy avtobuslarda
yo'lovchi o'tiradigan o'nlab
o'rindiqlar mavjud.**





Metro

Metro – yer osti temir yo‘li. Metro yer yuzasidagi yo‘lovchilar sonini kamaytirish uchun katta shaharlarda quriladi.

Bunday yo‘llar, odatda, yer ostidagi chuqur tonellarga yotqiziladi.

Lekin, ba‘zan yer yuzasidan ham o‘tadi. Metrodagi poyezdlar bir soatda 60 mingtagacha yo‘lovchini tashishi mumkin.



Metroning birinchi yo‘li
1873- yilda Londonda qurilgan.

Metro
poyezdining
YO‘LI.




YO‘LOVCHILAR
uchun sahn.

METROPOLITENNI
ayrim mamlakatlarda
«sabvey» deyishadi.
Bu inglizcha «tunnel» degan
ma'noni bildiradi.

METRO BEKATI –
juda katta
saroy.

Metro chizmasi shahar
xartasiga o'xshaydi.



Metropoliten
chizmasi.

Moskva shahri
chizmasi.

Moskva metrosining birinchi
shoxobchasi 1935- yilda qurilgan.




Yelkanli kema

Dengiz yelkanli kemasi juda ishonchli bo'lgan. U hatto okeanlarni ham suzib o'tgan. Uning machtalarida o'nlab yelkanlar bo'lgan.



Yelkan machtasining yuqori qismidagi sahn «mars» deb ataladi. Mars balandda, machtaning tepasida joylashgan. Har bir machtada kamida beshta yelkan bo'lgan.



Kemaning quyrug'i.

Angliyaning «Katta Garri» kemasining uzunligi 50 metr bo'lgan. Unda 415 ta ishchi ishlagan.


TAG TO'SIN

MACHTALAR
Har bir machtaning
fak-machta, grot-machta,
bizan degandek, o'z nomi
bo'lgan.

YELKANLARNING
bir qismini yoki
hammasini yig'ishtirib
olish yoki tortib qo'yish
mumkin bo'lgan.

BUSHPRIT –
oldindagi
yelkanlarni
mahkamlash
uchun xizmat
qilgan.

YAKOR –
kemani bir joyda
tutib turadi.





Zamonaviy kemalar


Bundan ikki yuz yillar muqaddam paroxodlar yaratilgan. Ular bug' bilan harakatga keltirilgan. Yuz yillar avval ichki yonish dvigateli bilan yuradigan teploxodlar – kemalar qurila boshlandi. Hozir kemalar katta zavodlarda quriladi. Ular yuqori tezlikda yurgizadigan kuchli dvigatellarga ega. Atom muzyorar kemasi atom kuchi bilan ishlaydigan moslamalarga ega. U muzni yorib, boshqa kemalarga yo'l ochib beradi. Bu kema juda qalin muzlarni ham yorish qudratiga ega.


«**K**lerman» dunyoda qurilgan birinchi paroxod. U 1807- yilda Amerikada qurilgan. «Yelizaveta» Rossiyada qurilgan birinchi paroxodlardan. U 1815- yilda qurilgan. U Sankt-Peterburg bilan Kronshtadt o'rtasida qatnagan.



Birinchi rus paroxodi.

«Tayfun» dunyoda eng katta suv osti kemasi.





«Arktika»
atom muzyorar
keması.

Hozirgi zamonda okeanlarda yuradigan kema – layner minglab odamlarni tashiydi. Uni suzuvchi shahar deyishadi. Unda kayutalar (odamlar joylanadigan bo‘lmalar), plyajlar, hovuz-basseynlar, tennis maydonchasi, kinoteatr, restoran, diskoteka o‘yingohlari mavjud.



Suv osti
qanotlari
bo‘lgan
kema.




Zamonaviy
layner – kema.




Samolyot

Qadim-qadimdan odamlar qanotli mashinalarni orzu qilib kelishgan. Lekin havoga yo'lni aslida benzin bilan yuradigan dvigatel olgan. Samolyot ko'payib ketgandan keyin odamlar bu «qush»ni aviatsiya deya boshlashdi. «Avis» so'zi lotinchada «qush» ma'nosida-da!




1903- yilda ilonga o'xshaydigan va benzin bilan ishlaydigan dvigatelli mana bu mashina yerdan uzilib 250 metrga ucholgan, xolos. Aka-uka Uilber va Orvill Raytlar havoda 59 soniya uchib, aviatsiyaning ilk qaldirg'och bo'lishgan.



DVIGATEL
samolyotning
qanoti ostida
bo'ladi.

UCHUVCHILAR
BO'LMASI.



Dvigatel uchun yoqilg'i samolyotning qanotida bo'ladi.


Il-90-300 samolyoti
360 yo'lovchini soatiga
1000 kilometr tezlikda
ko'tarib uchadi.

Yo'naltirish
RULI.

Balandga
ko'tarilish
RULI.

Samolyotni
boshqarish
PULTI.

Samolyotning
QANOTI.



Raketa

Raketa – bu uchish apparati. Fazoga – havo yo‘q joyga faqat raketa uchib chiqishi mumkin. Raketaga havoning keragi yo‘q. Yonilg‘i yonishi bilan uning ostidan yonib chiqqan gaz uni oldinga itaradi. Rus olimi Konstantin Sialkovskiy yigirmanchi asrning yarmida fazoga uchish nazariyasini ishlab chiqqan.




Kosmik raketalar kosmodromlarda uchiriladi. Kosmodrom – raketalarni, odamlarni fazoga uchirishga tayyorlaydigan va murakkab texnik asbob-uskunalar bilan jihozlangan butun boshli shahar.



Poroxli raketa yonganda atrofga yuzlab uchqunlarni sochib yuboradi. Bu bir vaqtlar xitoylar yaratgan mushakbozlikdir. Ular bambuk tayoqchasi ichiga porox to‘ldirib, yoqib yuborganda osmonga uchqunlar sachragan.





Raketalar bir bosqichli va ko'p bosqichli bo'ladi. Har bir bosqich raketani yanada yuqoriga uchiradi. Raketa osmonga ko'tarilgandan keyin birinchi bosqich ajraladi, undan keyin ikkinchi, uchinchi va shunday qilib davom etaveradi. Oxirida raketaning o'zi uchishni davom ettiradi.

Raketa havosiz bo'shliqda uchadi. Unda yonilg'i yonadi. Uning orqasida yongan uzun gaz oqimi qoladi. Mana shu oqim raketaning orqasidagi maxsus teshikchadan otilib chiqadi-da, uni oldinga itaradi. Raketaning harakati shu yo'l bilan bo'ladi.



Elektr

Osmonda momaqaldiroq bo'lganda, bulutlar orasida chaqmoq chaqib ilang-bilang izlar qoldiradi-da, gumbirlagan ovoz eshitiladi. Momaqaldiroq elektr tokini hosil qiladi, elektr toki esa bulutlar orasida hosil bo'ladi. Qop-qora bulut suv va muz zarrachalaridan iborat. Ular bir-biriga qo'shilib zaryadlanadi. Ularning mana shu qo'shilishi oqibatida kuchli elektr toki – razryadi hosil bo'ladi.



Chaqmoq kuchli elektr toki bo'lib, u momaqaldiroq paytida hosil bo'ladi.

Okeanlarda yashaydigan skat baliq'ida ham elektr quvvati bor.



Razryad – bu tok

Ayrim baliqlarda, masalan, ilonbaliq va skatlardayam elektr toki bo'ladi. Ular mana shu toklari bilan o'lja ovlaydi.



Mushuk «elektrlangan» hayvon. Uni silasangiz elektr tokining qo'lga urilib chisirlaganini eshitasiz.



Gidroelektrostansiyalar katta daryolarda quriladi. «Gidra» – «suvli» degani. Bu elektrostansiyalar suvniyam, atrof-muhitniyam bulg'atmaydi.



Baland machtalarga elektr simlari tortilgan. Ular chinni izolyatorlar bilan ishonchli himoyalangan.

Elektrostansiya

Elektrotokini maxsus mashinalar – generatorlar ishlab chiqaradi. Elektrostansiyalarda ulkan turbinalar generatorlarni aylantiradi. «Turbina» so'zi «trubo» – «girdob» degan so'zdan olingan. Suvli turbinalarda suv kechasi-yu kunduzi girdobday aylanib turadi. Tok elektrostansiyadan simlar orqali shaharlarga, bizning uylarimizga keladi.



Yorug'lik

Hozirgi odamlar elektrsiz yashashni tasavvur ham qilisholmaydi.

Butun hayotimiz ko'zga ko'rinmas mana shu dastyorga bog'liq. Metro, poyezdlar, trolleybuslar, tramvaylar elektr toki bilan yuradi. Uning kuchi bilan zavodlardagi dastgohlar, uydagi asbob-uskunalar ishlaydi, chiroqlar yonadi.


Sham ko'p asrlar mobaynida yorug'lik manbai bo'lib kelgan.



Edison chirog'i

Ko'pdan-ko'p olimlar XIX-asrda elektr tokidan yorug'lik olish ustida bosh qotirib kelishdi. Amerikalik ixtirochi Tomas Edison elektr tokidan keng miqyosda foydalanish imkonini beradigan chiroqni kashf etdi. U havosi so'rib olingan shisha kolbaga kuygan bambuk tolasining qizdirilgan ipini solib qo'ydi.

Shahar ko'chalari chiroqlar bilan yoritilganiga ancha bo'lgan. Lekin ular elektr toki bilan emas, maxsus yog'lar, kerosin va gazlar bilan yoritilgan.






Katta qandillar katta xonalarni yoritadi. Ularda o'nlab mayda lampochkalar nur sochadi.



Cho'g'lanib yonadigan chiroqlardan birini XIX- asrning 70- yillarida mashhur rus ixtirochisi A.N. Lodigin yaratgan.

Har xil chiroqlar

Nur sochadigan har xil lampochkalar bor. Xonalar ko'pincha qizdirilgan lampochkalar bilan yoritiladi. Zavod-fabrikalar, ofislar, zinapoyalar va yo'laklar kunduzgi yorug'likni beradigan nayli lampochkalarda yoritiladi.



Har xil nur sochuvchi asboblarni xonalarimizning bezagi bo'lib qoldi.

Uydagi texnika




Hozirgi zamon oshxonasi har xil elektr asboblari bilan to'la. Ular uy bekalarining ishini yengillashtiradi va vaqtini tejaydi. Qahva qaynatadigan choynak, dazmollar, sharbat siqqich va boshqalar elektr toki bilan ishlaydi.



Ilgari dazmollar ichiga ko'mir cho'g'ini solib qizdirilgan. Hozir elektr toki bilan qizdiriladi.

Elektrochoynak – samovarning avlodi. U suv qaynagach o'z-o'zidan o'chadi. Ko'pgina maishiy asbob-uskunalarining tuzilishi juda oddiy. Ularning ichida maxsus qotishmadan yasalgan spiral sim bo'ladi.



Tok uni qizdiradi. Buning uchun uning ikki uchini elektr tokiga ulashni unutmaslik kerak.



Toster
elektro'choq nonni
ikki
daqiqada pishirib
beradi.

Uyda texnikaning turli xillari ishlatiladi. Ko'pchilik uylar katta-katta elektr plitalar bilan jihozlangan. Elektr kaminlar xonalarimizni isitsa, ventilyatorlar, konditsionerlar sovutadi. Undan tashqari elektr adyollar, grelkalar, suvqaynatgichlar, go'sht-qiymalagichlar ham bor...

Ilgarilari qo'lda un qilinardi. Hozir esa oshxona kombayni elektr yordamida donni un qiladi, elaydi, xamir qiladi.

Har bir elektr asbobi shnur-sim orqali kontaktli vilkaga ulangan bo'ladi. Vilkaning rozetka teshigiga kiradigan ikkita tishchasi bo'ladi. Vilka rozetkaga tiqilgandan keyin tok shnur orqali kerakli joyga boradi.




Qahvamaydalagich-
ning toklisi va qo'l
bilan maydalaydigani
bor.






Radio

«Radius» soʻzi lotin tilida «nur» degani. Lekin biz bu nurni koʻrmaymiz. U yorugʻlik taratmaydi, koʻzga koʻrinmas toʻlqin yuboradi. Ularni tutib olish uchun radiopriyomnik kerak.



A. S. Popovning birinchi radiopriyomnigi.

Ilgari radiokarnayni talinka deyishardi.




Popov radiososi

Birinchi radiopriyomnikni bundan yuz yil muqaddam 1895- yilda rus olimi Aleksandr Popov yaratgan. Uning asboblari elektr qoʻngʻiroqni eslatadi. U gapirmasdi, qoʻshiq ham aytmasdi, lekin goho jiringlab qoʻyardi. U signallarni – radiotoʻlginni mana shunday qabul qilardi. Toʻgʻri, u vaqtlarda hali radiostansiyalar yoʻq edi. Bu toʻlqinlar momaqaldirimli bulutlardan chaqmoq tariqasida kelardi.

Ilk priyomniklardan biri.



Sozlash shkalasi boʻlgan radiopriyomniklar.



XX asr o'rtalaridagi
radiopriyomniklar.

Markoning muvaffaqiyatlari

I talyalik muhandis Gulelmo Markoni 1894- yildan boshlab radioto'lqinlarning signal yuborishidan foydalanish ustida ish olib borgan. Uning radiopriyomnigi A. Popovning priyomnigiga o'xshash bo'lgan. 1909- yilda G. Markoni radioaloqalarni rivojlantirgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.



Radiopriyomnik – radiosignallarni qabul qilib olib, ularni ovozga aylantirib beradigan apparatdir.



Zamonaviy
dinamiklar.



Musiqa markazida radiopriyomnik ham bo'ladi.

Zamonaviy radiopriyomniklarni har qanday to'lqinga soziash mumkin.




Hamma yerda – radio

Hozirgi kunda simsiz radio orqali dengizdagi kemalar, osmondagi samolyotlar, fazodagi kosmonavtlar bilan ham gaplashish mumkin. Kundalik hayotimizda, fanning hamma sohalarida radiosignallar qo'llaniladi.


Aleksandr Popov radioto'lqinlarning qanday tarqalishini tushuntirib bergan. Bu juda sodda. Buning uchun suvga tosh tashlab ko'rish kerak. Atrofga sachragan suv radioto'lqinni eslatadi.





Telefon


Ikkita grekcha soʻzdan yasalgan bir apparat borki, busiz hozir hayotimizni tasavvur qilolmaymiz. Bu «tele» – «uzoq», «fone» – «ovoz» degan soʻzlar. Telefon uzoq masofadagi soʻzlarni bizga eshittiradi.



Osma telefon apparati.



A. Bellning telefon apparati katta shkafga oʻxshagan.



Ilk telefonlar ibtidoiy boʻlgan, ulardan foydalanish juda qiyin edi.

XIX asr oxiridagi telefon apparati.



Birinchi

Amerikalik A. Bell 1876- yilda dunyoda birinchi telefoni yaratgan. U elektr tokining tebranishi natijasida sim orqali odam ovozini yetkazib beradigan gʻaroyib telefon apparatini ixtiro etgan.

Avtomatlar

Zamonaviy telefon o'tmishdagi telefonlarga mutlaqo o'xshamagan. Baribir ularning vazifasini bajaradi. Hamma apparatlarga simlar telefon stansiyasidan keladi. U yerda son-sanoqsiz avtomatlar odamlarni bir-biri bilan bog'laydi.

Raqam qo'l bilan teriladigan telefon.



Raqamlar tugmachani bosib teriladigan telefon.

Jonli ovoz

Ovoz to'lqinlari uni elektr tokiga aylantirib beradigan mikrofondga tushadi. Keyin u sim orqali boshqa telefon apparatiga zudlik bilan yetib boradi. U yerda yupqa plastinka – membranani tebratadi. Bu bo'lsa, o'z vaqtida havoni itarib ovoz chiqaradi. Bu yana va yana takrorlanadi.



Faks-telefon orqali gaplashishgina emas, har qanday xatni jo'natish ham mumkin.

Har xil

Sunday telefonlar ham borki, u sizga telefon qilayotgan odamning telefon raqamini ko'rsatadi. Javob beruvchi, ya'ni telefondagi avtomat uyda hech kim yo'g'ida qo'ng'iroqqa javob beradi.




Radiotelefon

Mobil telefon


So'nggi telefonlar modeli simsiz ishlaydi.

Kino



«Kino» soʻzi «kinematograf» soʻzining qisqargan shaklidir.


Grektilida bu soʻz «harakatdagi yozuv» maʼnosini beradi. Kinokamera harakat ketidan harakatni, kadr ketidan kadrni suratga olib boradi. Proyektor bu suratlarni ekranda koʻrsatadi. Dastlabki filmlarni «jonli fotografiya», deb atashgandi.



Kinoprojektor.


Aka-uka Lyumerlar

Fransuz ixtirochilari aka-uka Lun va Ogyusiy Lyumerlar 1895- yilda «Poyezdning kelishi» degan dastlabki filmni namoyish qilishgan. Ekranda bugʻ taratib parovoz toʻgʻri tomoshabinlarga qarab kela boshlaydi. Koʻpchilik qoʻrqqanidan oʻrnidan turib qichqira boshlaydi. Ularning nazarida poyezd toʻgʻri kelib bosib ketadiganday tuyuladi. Kino davri ana shunday boshlangan.



Eski kinoprojektor.

Qutichadagi yorliqqa film nomi yozilgan.




Kinotasmalar temir qutichalarda saqlanadi.



Harakat

Ekranda harakat qanday amalga oshiriladi? Kino tasmani ko'rib, undagi suratlar bir-biriga o'xshamaganligini sezish mumkin. Aktyorlarning holatlari kadrda kadrda o'zgarib boradi. Ekranda ko'z o'ngimizda tez-tez o'tib bir-biriga qo'shilib ketadi. Tomoshabin uzluksiz harakatdagi manzarani ko'radi.

Velosiped harakatsiz turganda uning har bir kegayi ko'rinib turadi. U yurganda hamma kegaylar qo'shilib ketganday bo'ladi. Kinoda ham shunday. Biz bir soniyada 24 ta suratni ko'ramiz, emas, butun bir jonli manzarani ko'ramiz.



Videokamera.

Kinofilmlarni ko'rsatadigan zamonaviy apparat.



Televizor

Grekcha «tele» — «uzoq», lotincha «vazor» — «ko‘rinish» degan ma‘noni beradi. Bu ikki so‘z qo‘shilib bizga tanish «televizor» so‘zini tashkil qiladi.

Bu apparat bizga uzoqdagi ham tasvirni, ham ovozni uzatadi.

Surat va ovoz

Televizor – juda murakkab radiopriyomnik. U faqat ovozni emas, suratniyam qabul qilib oladi. Peredatchik antenna bilan birga televizorga o‘rnatiladi. U yerdan hamma televizorning antennalariga ko‘zga ko‘rinmas radioto‘lqinlar tarqatiladi.



Televizor-larning ikkinchi avlodi.



1938- yilda televizorning ekрани juda kichkina bo‘lgan.

Boshlanishi

Uzoqdan tasvirni uzatishga bundan 80 yil ilgari urinish bo‘lgan.

Suratning kattaligi pochta markasidek bo‘lgan. 1930- yillar o‘rtasiga kelib uning miqyosi otkritka darajasiga keltirildi.

Muntazam televizion ko‘rsatuvlar 1930- yilda Buyuk Britaniyada va Germaniyada, 1939- yilda esa Moskvada boshlangan.

Maxsus linza orqali tasvir kattalashtirib ko‘rsatilgan.






Juda katta ekranlar vokzallarda, aeroportlarda o'rnatilgan.

Uy kinoteatri

Dastlabki televizorlar manzarani oq-qora rangda ko'rsatgan. 1960-yillardan boshlab rangli televideniye paydo bo'ldi. Asta-sekin televizor har bir xonadonga kirib keldi. Katta ekranga ega bo'lgan hozirgi zamon televizorlarini haqiqatan ham uy kinoteatri deyishadi.

Hozirgi televizorlar yassi ekranli.



Ostankinodagi Moskva teleminorasining balandligi 540 metr.




Ovozli apparatlar

Tovushni yozib oladigan va uni magnit tasmaga yozib, eslab qoladigan apparatni magnitofon deyiladi. «Fone» soʻzi grekchada «tovush» degan maʼnoni anglatadi.



Edison fonografi

Ovozni yozib oladigan eng birinchi apparatni 1877- yilda amerikalik ixtirochi Tomas Edison yaratgan. Uning apparati «fonograf», yaʼni «tovushni yozib oluvchi» deb atalgan. Uning ovozi tasmaga emas, valikka oʻralgan qoʻrgʻoshin qogʻozga yozilgan.



T. Edison fonografi

Grammofon – trubkaga karnay oʻrnatilgan mexanik apparat. Igna oʻrnatilgan qalpoqchasi ovozni chiqarib beradi.

Plastinka.



Kasseta paydo bo'lguncha g'altak ish bergan. Ungayam magnit tasmasi o'ralgan. Minikasseta paydo bo'lishi bilan magnitofonlarning yangi avlodi vujudga keldi.

Kasseta.



Kassetadagi magnit tasmasi g'altakka siqib o'ralgan. Katushkaning ikkinchi yarmiga tasma ishga tushirilganda o'raladi.



Magnitola

Hozirgi zamon magnitofoni ovozni ham yozib oladi, ham qayta qo'yib beradi. Lekin grammofon va patefondan farqi shuki, u juda qulay va sodda tuzilgan. Magnit tasmasi shaffor plastmassadan iborat bo'lib, u qutichadagi kassetaga joylanadi. Magnitofonni magnitola deyishadi. Unga radiopriyomnik va proigrivatellarning disklari zich qilib joylashtirilgan.

Lazer diski texnikaning so'nggi yutug'i.



Kolonka o'rnatilgan magnitola.



Videokasseta.

Videomagnitofon ham ovozni, ham tasvirni yozib oladi.




Kompyuter

«Kompyuter» soʻzi lotin tilidan «komputo» – «hisoblayman» degan soʻzdan olingan. Dastlab bu aqlli mashina faqat hisoblagan. Endilikda u yozadi, rasm chizadi, koʻrsatadi va qoʻngʻiroq qiladi.

Maʼlumotlar yozib olinadi, ular disk va disketlarda saqlanadi.




Kompyuterning ekranini monitor deyiladi. Monitoring oldida klaviatura turadi. U bilan soʻzlar yoziladi. Uning yonida blok sistemasi qutisi turadi. Uning ichida kompyuterning asosiy asbob-uskunalari joylashgan.




«Sichqon» kompyuterni boshqarishga yordam beradi, u bilan telefon raqamlari tezda teriladi.

«Internet» so'zi «xalqaro shoxobcha» degan ma'noni beradi. Bu tarmoq orqali yer sharining hamma nuqtalari bilan bog'lanish mumkin. Internet orqali xat jo'natish, istagan ma'lumotlarni topish va olish, hatto kitob ham o'qish mumkin.




Internet butun qit'alarni mana shunday o'rab olgan.



Kompyuterning ishchi stoi ekranda ko'rinib turadi. Undan kompyuterning xotirasidagi hamma narsani ko'rish mumkin.

Kompyuterda rasm chizish, qiziq o'yinlarni o'ynash mumkin. Bir vaqtlar bu aqlli mashina shaxmat o'ynab jahon chempionini ham yutgan. Kompyuterda yozish juda qulay. Klavishni bosish bilan ekranda harf paydo bo'ladi. Hech qanday ruchka va qog'ozning keragi yo'q.

Noutbuk (ingliz tilida «yon daftarcha» ma'nosida) ishbilarmon odamlar uchun yonda olib yuradigan kompyuter. U kichkina chamodanchaga o'xshaydi.



SAN'AT olami

San'at qanday paydo bo'lgan?	70
Piramidalarning sirlari	72
Tigr va Yevfrat oralig'ida	74
Donolar mamlakati	76
Mo'jizalar zamini	78
Saroylar, gullar va dengiz	80
Elladaning moviy osmoni ostida	82
Mag'rur Rim	84
O'rta asrlar	86
O'yin bilan fanning bahsi	88
«Sayyor ko'rgazma»	90
Kostyumlar va dekoratsiyalar	92



Odamzot qadimdan atrofini o'rab olgan hamma narsani – nimani ko'rgan va nimani o'ylagan bo'lsa, o'shani tasvirlashga intilib kelgan. Bu tasvir g'orlar devorlarida, matolarda, marmar toshlarda aks etgan, buni san'at deyiladi. Mazkur bo'lim san'atning turli xillari va uning buyuk vakillariga bag'ishlangan. Aziz bolajonlar, siz bunda qadimda san'atning qanday paydo bo'lganligi, uning taraqqiyoti va mo'jizaviy san'at asarlarining qanday yuzaga kelganligi haqida chuqur ma'lumotlarga ega bo'lasiz.





San'at qanday paydo bo'lgan?

Odamlar ibtidoiy tuzum davrida ham o'zini o'rab olgan tashqi dunyoga munosabatlarini bildirishga intilishgan va g'orlar devorlariga rasmlar chizishgan. Qo'lda hayvon va odamlarning turli xil shakllarini yasashgan. Biz hozir san'atning qadimiy asarlari deb atayotgan namunalari ibtidoiy odamlar tabiatning qudratli kuchlariga bag'ishlashgan.

G'orlardagi rasmlar

Olimlar san'at bundan 30 ming yil muqaddam tosh asri davrida paydo bo'lgan, deb hisoblashadi. Ibtidoiy odamlar ov qilishganda chaqqonlik, kuchlilik va chidamlilik talab qilingan. Bunday kuchni odamlar yovvoyi hayvonlarda ko'rishgan va ularga taqlid qilishgan. Qadimgi odamlar chizilgan haykallar suratlarini sehrli deb bilishgan va ular bizga ov jarayonida madad beradi, deb tushunishgan.

Ilk inshootlar

Ibtidoiy davr insoniyatga eng birinchi qurilishlarni qoldirgan. Ular «megalitlar» yoki «ulkan toshlar» deyiladi. Ular bu ibodatxonalarda shamolga, yomg'irga, yerga, quyoshga va oyga iltijo qilib sig'inishgan.

Miloddan 2000 yillar muqaddam Angliyaning Stonxenj degan joyida Quyoshga bag'ishlangan ulkan yodgorlik qurilgan.





G'orlarga o'sha davr rassomlari bug'u, bizon, otlar va boshqa hayvonlarning rasmlarini chizishgan.

Quyoshga yodgorlik

Stonxenj – qadimgi davrda toshdan qurilgan eng mashhur inshoot. U juda og'ir toshlardan doira qilib qurilgan. Uning o'rtasida toshlar bilan baland ko'tarilgan muqaddas joy – mehrob bor. Yozda kun uzun va tun qisqa bo'ladigan paytda ertalabki quyosh nurlari mehrobni yoritib turgan. Qorong'ilikni yengib, yerga issiqlik va nur baxsh etadigan Quyosh sharafiga bunyod etilgan yodgorlik ana shunday qurilgan.



G'or devorlarida ov marosimi mana shunday mufassal tasviriangan.



Tosh asrida kaftdek keladigan, suyak, shox yoki toshdan yasalgan shakllar paydo bo'lgan. Ularni mo'jizaviy kuchga ega deb hisoblashgan.

Masalan, semiz, qorni, ko'kragi katta ayollar tasviri hosildorlik belgisini bildirgan. Ular ko'psonli sog'lom bolalar tug'ilishiga yordam beradi, deb o'ylashgan.





Piramidalarning sirlari

Zamonlar o'tib odamlar g'orlardan chiqishadi, uy qurib yerni ishlay boshlashadi. Ilk davlatlar katta-katta daryolar yoqalarida vujudga keladi. Chunki u yerlarda suv mo'l, ishlab yaxshi hosillar yetishtirish mumkin edi. Bundan besh ming yillar muqaddam Afrikaning shimoli Nil daryosi vohasida qudratli Misr davlati vujudga keldi.

Umrboqiy hayot uchun uy


Qadimgi misrliklar odam o'lgandan keyin uning boshqa – abadiy hayoti boshlanadi, deb ishonganlar. Ularda Inson qalbi tanasining aniq nusxasi bo'lib taassurot qoldirgan. Narigi dunyoda rchat qilib yashashi uchun bu dunyoda jismi saqlanadigan maqbara qurishgan. Maqbaraga odatdagi uy anjomlarini qo'yishgan.

Fir'avnlarning maqbaralarini boshi fir'avn, tanasi arslon bo'lgan dahshatli sfinks qo'riqlagan


Buyuk piramidalar

To'rt ming yildan uzoq vaqtdan buyon Misr sahrosida uchta ulkan piramida qad ko'tarib turibdi. Bu piramidalar fir'avn shohlardan Xeops, Xefren va Mikerinlarning maqbaralaridir. Xeops piramidasida dunyoda toshlardan qurilgan eng katta inshootdir. Uning balandligi 147 metrga yaqin. Uni qurish uchun har biri 2,5 tonna keladigan ikki milliondan oshiq tosh ketgan.





Toshdan yasalgan piramidalarning ostida fir'avnlarning jasadlari va ularning xazinalari yotibdi.



Eng katta maqbaralar Nil daryosining g'arbiy, quyosh botadigan tomonida qurilgan, chunki shu yoqda xudo Osiris boshqaradigan o'liklar saltanati joylashgan deb hisoblangan. Inson ruhi donishmand va adolatli Osiris saltanatida nihoyat osuda dam olishi uchun xavfli sayohatlarni amalga oshiradi. Bu yo'lda uni dahshatli maxluqotlar, ulkan ilonlar, tutun qoplagan olovli daryolar kutib turadi. Ruhni ulardan qutqarish uchun sehrli duolar yordam berishi mumkin, ular maqbaraning devorlariga o'yib yozib qo'yiladi.

Osirisga sayohat

Sayohat oxirida ruhga Osiris hukm chiqaradi. O'liklar saltanati hukmdori taxtining qarshisida ruh yorug' dunyoda yashagan davrida qilgan yaxshi-yomon ishlariga javob berishi va hukmni eshitishi kerak. Osirisga sayohat davrini ibodatxonalar devorlarida, sag'analarda batafsil yozib qoldirishgan, bu yozuvlarda odamlarga yaxshilik qilish qay darajada muhim ahamiyatli ekanligini tasvirlashgan.



Misrliklar xudolariga atab ibodatxonalar qurishgan, ularni haykallar va yozuvlar bilan bezashgan.



Tigr va Yefrat oralig'ida


Old Osiyo davlatlari ham Misr kabi ko'hna va qudratli bo'lgan. Ular fors ko'rfazidan shimolga qarab ketgan keng maydonda ikki katta daryo – Tigr va Yevfrat oralig'ida paydo bo'lgan. Shuning uchun ularning yaqin atrofida bo'lgan yerlarni Daryo oralig'i yoki Ikki daryo oralig'i deb atashgan.

Unutilgan yodgorliklar

Daryo oralig'i davlatlarining buyuk madaniyati uzoq vaqtlar unutilib ketgan. Bu yerda saroylar, ibodatxonalar xom g'ishtdan qurilgani bois tezda buzilib ketgan. Buning ustiga bu davlatlar muttasil bir-biri bilan urushib kelishgan. Urushlar, yong'inlar, suv toshqinlari oqibatida go'zal shaharlardan faqat xarobalar saqlanib qolgan, xolos.

Osmon minorasi

Daryo oralig'i xalqlari xudolar odamlar oldiga tog'lardan tushib kelishadi, deb ishonishgan. Miloddan avvalgi uch minginchi yillarda ular baland-baland minoralar qurib, ularni «muqaddas tog'lar» deb atashgan. Bu minoralarni zikkuratlar deyishgan.





Qadimgi Vavilon shahrini buqalar va ajdarlar tasviri qo'riqlashgan.

Jangchilar va ajdarlar

Daryo oraliq'i rassomlari kuchli va xavfli hayvonlarning rasmini chizishni yaxshi ko'rishgan. Ular ov va muzaffarlik nasib etgan janglar haqida gapirishgan va afsonaviy odam – buqa, odam – baliq obrazlarini yaratishgan. Bu hol tabiatning odam bilan birlashib, qo'shilib ketishini, ularni qo'riqlashini anglatgan.



Qo'rqinchli vahshiy hayvonni mag'lub etishni orzu qilib, rassomlar qudratli qahramonlar obrazini yaratishgan.

Hayotdan qo'rquv tuyg'usi Old Osiyo xalqlarini xudolardan yordam so'rashga majbur qilgan. Xudoga iltijo qilib turgan odamlar haykallarining ko'zlarini katta-katta qilib yasashgan, ularning ko'z qorachiq-lari o'rniga yaltiroq toshlarni qo'yishgan. Bu «gapiruvchi» ko'zlarda insonning qalbi aks ettirilgan.



Qanotli buqalar

